

FIRIBGARLIK JINOYATINING TASNIFI, JINOIY JAVOBGARLIGI HAMDA CHET DAVLAT JINOYAT QONUNCHILIGI BILAN QIYOSIY TAHLIL

Berdiboyev Sardor , Shamshetova Zulxumor

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabalari

Kalit soʻz: *Jinoyat kodeksi, firibgarlik, oʻzganing mulki, talon-taroj, ishonchiga kirib, aldab, chet el tajribasi, tergov, jinoyat tarkibi, jinoiy javobgarlik*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida belgilangan Firibgarlik jinoyatini tahlil qilib, uning jinoyat tarkibi, jinoiy tabiati, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsga nisbatan koʻriladigan jazo turlari hamda Germaniya Federativ Respublikasining ushbu turdagi jinoyat bilan Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil oʻtkazilgan.*

Soʻnggi vaqtlarda firibgarlik, tovlamachilik bilan bogʻliq jinoyatlar ortgani sir emas. Achinarlisi shundaki, firibgarlik jinoyati yoxud firibgar va yoki tovlamachi qarmogʻiga ilinayotgan vatandoshlar soni kamayib qolayotgani yoʻq. Qolaversa, taraqqiyot yuksalgani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari ham qayd etilmoqda. Axborot texnologiyalari, internet orqali amalga oshirilayotgan firibgarliklar ham koʻp uchrayapti.

Oʻzbekiston Respublikasida firibgarlik jinoyatini sodir etilishi ortib borishi, davlat va jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. IIV Jinoyat-qidiruv bosh boshqarmasi taqdim etgan maʼlumotlarga koʻra, 2019 yil yanvar-iyul oyida respublika boʻyicha 1954 ta firibgarlik jinoyati roʻyxatga olingan boʻlsa, 2020 yilning shu davrida bu raqam 3881 tani tashkil etgan. 2019 yilda 1748 kishi qoʻlga olinib, firibgarlik jinoyatini ochish 98,2 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2020 yilda bu raqam 95,9 foizdan iborat boʻlmoqda. Davlat statistikasi qoʻmitasi maʼlumotlariga qaraydigan boʻlsak, bu jinoyatni fuqarolarning jinsiga qarab ajratilgan boʻlib, 2020-yilda erkaklar tomonidan 5496 ta firibgarlik jinoyati sodir etilgan boʻlsa, 2021-yilda bu jinoyat 2 barobar yani firibgarlik jinoyati soni erkaklar tomonidan 11921 taga yetdi. Ayollar tomonidan esa 2020-yilda 1109 marta firibgarlik jinoyati qayd etilgan boʻlsa, 2021-yilga kelib 2295 tani tashkil etmoqda. Umumiy hisobda, firibgarlik jinoyati 2021 yilda 24,554 marta qayd etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida firibgarlik jinoyati uchun javobgarlik koʻrsatilgan boʻlib, firibgarlik bu, aldash yoki ishonchni suiisteʼmol qilish yoʻli bilan oʻzganing mulkini yoki oʻzganing mulkiga boʻlgan huquqni qoʻlga kiritish tushuniladi.

Firibgarlik jinoyatini yuridik tahlil qilsak, ushbu jinoyatning **obyekti** –oʻzganing mulki yoki mulkiy huquqlarini muhofaza etishga qaratilgan munosabatlar tashkil etib, **predmetiga** – oʻzganing mulki yoki yuridik kategoriya sifatida oʻzganing mulkiga boʻlgan huquq hisoblanadi. **Obyektiv tomondan** firibgarlik aldash yoki ishonchni suiisteʼmol qilish yoʻli bilan oʻzganing mulkini yoki oʻzganing mulkiy

huquqini qo'lga kiritishdan iborat bo'ladi. Aynan aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish mulkdorda yoki mulkning boshqa qonuniy egasida mulkni yohud mulkiy huquqlarni jinoyatchiga o'tkazish fikrini tug'diradi.

Aldash deganda, aybdor tomonidan, bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan yo'lg'on yoki melkning egasiga ma'lum qilinishi bo'lgan haqiqiy faktni yashirish yoki mulk egasini yanglishtirishga qaratilgan qasddan sodir etilgan harakatlar tushuniladi. Yanglishtirishga olib kelish: aybdor shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ hodimi sifatida ko'rsatishida namoyon bo'ladi ya'ni aybdor shaxsi, uning vakolati niyati haqida, hamda mulki haqida aybdor tomonidan jabrlanuvchini yanglishtirish tushuniladi.

Firibgarlik jinoyatida aybdor tomonidan aldash harakatlari ikki xil usulda yani: **Faol aldash** hamda **faol bo'lmagan aldash** holatlarida bo'lishi mumkin. **Faol aldash** – yolg'on bo'lgan ma'lumotlarni yetkazish vositasi yordamida mulkdorni chalg'itishida namoyon bo'ladi. **Faol bo'lmagan aldash** esa jabrlanuvchiga yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktik holatlar haqida aybdor tomonidan xabar berilishi shart bo'lgan, ma'lumotlarni gapirmaslik va bu kabi xabarlarini yetkazmasligida tashkil topadi.

Firibgarlik jinoyatining zaruriy belgisi bu mulkdor mulkni yoki mulkga bo'lgan huquqini **o'z ixtiyori** bilan aybdorga topshirilishi hisoblanadi. O'z ixtiyori bilan topshirish, jabrlanuvchi shaxs ya'ni mulk egasi ayblanuvchining yolg'oniga yoki yolg'on fakti yohud haqiqatni yashirganligi sababli o'z mulkini topshiradi.

Jinoyat Kodeksi 168-moddasida belgilangan firibgarlik jinoyatini 16 yoshga to'lgan aqli raso shaxs tomonidan to'g'ri qasd bilan sodir etiladi.

Mulkni aldash yo'li bilan o'zlashtirishga qaratilgan firibgarlik jinoyat, mazkur mulkning ayblanuvchi egaligiga o'tgandan boshlab va ular undan xohlagancha foydalanish yoki uni tasarruf etish real imkoniyatiga ega bo'lgan vaqtda **tugallangan** hisoblanadi.

Firibgarlik jinoyati 2,3 va 4 qismlarida ushbu jinoyatni ogirlashtiruvchi holatsda sodir etilganligi uchun javobgarlik ko'rsatilgan:

ancha miqdorda (2q a-bandi); bir guruh shaxslar tomonidan (2q b-bandi);

ko'p miqdorda (3q a-bandi); takroran yoki xavfli retsivist tomonidan (3q b-bandi); xizmat mavqeyidan foydalanib sodir etilganligi (3q v-bandi) axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilganligi (3q g-bandi);

juda ko'p miqdorda (4q a-bandi); o'ta xavfli retsivist tomonidan (4q b-bandi); uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilsa (4q v-bandi).

Firibgarlik jinoyatini yuridik tahlil qilganda, chet el tajribasini organish alohida qiziqish uyg'otadi. Masalan, Amaldagi Germaniya Jinoyat kodeksiga ko'ra, Firibgarlik jinoyatini 7ta tarkibli hisoblanib ularga:

Firibgarlik (263§) – Aldash hamda yanglishtirishga olib boradigan haqiqatni yashirish natijasi mulkni talon taroj qilish.

Kompyuter foydalangan holda Firibgarlik (§263a) – Elektron hisoblash mashinasi orqali mulkiy zararga olib keladigan daromadni ko'zlagan holda qayta ishlash jarayoniga ta'sir qilish;

Subsidiyalarni olishga qaratilgan firibgarlik (§264) – 4ta alternativ harakatlarni o'z ichiga oladigan jinoyat bo'lib bularga: subsidiya o'rganiga noto'g'ri ma'lumot berish; cheklovga qaramasdan subsidiyadan foydalanish; subsidiya organini ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumot yoki faktlar bilan xabardor qilmaslik; yolg'on ma'lumotlar orqali olingan sertifikat (subsidiya) dan foydalanish;

Investitsiyadagi firibgarlik (§264a) – yuqori turuvchi shaxslarga investitsiya qilish vaqtida aksiyalarni sotish yoki sotib olish bilan bog'liq yolg'on ma'lumot berish yoki ahamiyatli ma'lumotlarni yashirish;

Sug'urta sohasiga doir firibgarlik (§265) – Sug'urta tovonini olish maqsadida sug'urtalangan narsaga zarar keltirish yohud butunlay ishdan chiqarish. Germaniya Federativ Respublikasi JK ko'ra, §263 dagi holatlar mavjud bo'lmasa, shu modda bilan javobgarlik kelib chiqadi.

Xizmatlarni aldov yoki manipulyatsiya bilan hal qilish (§265a) – ya'ni bu jinoyatni sodir etishda, subyekt aldov yo'li bilan ya'ni xizmat uchun pul to'lamasdan avtomatlardan yoki telekommunikatsiya tarmoqlaridan, yoki transportlardan pul to'lamagan holda foydalanish tushuniladi.

Kredit olish bilan bog'liq firibgarlik (§265b) – ya'ni, Kredit olish vaqtida shaxsiy, iqtisodiy holatlari haqida o'zining foydasi uchun yolg'on ko'rsatmalar berish, ya'ni bu yolg'on ko'rsatmasi bilan ishni ijobiy hal qilish bilan bog'liq jinoyatdir:

Ishonchni suiiste'mol qilish (§266) – ya'ni subyektga berilgan qonuniylashtirilgan ishonchnomani suiiste'mol qilinganligi natijasida, ishonchnoma bergan shaxsga zarar yetkazilishi.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksida Firibgarlik jinoyatini yuqoridagi turlarga ajratilgan bo'lib, asosan ularga deyarli bir xil bo'lgan jazo turlari bilan ya'ni ozodlikdan mahrum qilish 6 oydan 10 yilgacha yoki jarima tariqasidagi jazolar qo'llaniladi.

Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat Kodeksida ahamiyatga ega joyi esa, Firibgarlik jinoyatini sodir etgan shaxs zararni qoplash, qoplamasligidan qat'iy nazar, u jazolanadi. Huddi shunday norma, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2016-yil 26-dekabrdagi O'RQ-416-sonli Qonuni bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchada ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmasligi belgilangan.

JK 168-moddasi 5-qism rag'batlantiruvchi norma hisoblanib zararni bartaraf qilsa, ozodlikdan cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmasligi ko'rsatilgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Germaniya qonunchiligiga ko'ra, firibgarlik jinoyatining sodir etilish usullari aniq ko'rsatilgan, shuni hisobga olib, O'zbekiston

Respublikasi qonunchiligida ham firibgarlik jinoyatini sodir etilish usullarini aniq ko'rsatsa maqsad muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021y.
URL: <https://constitution.uz/oz/clause/index#section1>

2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2021 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y. –

3. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии, по состоянию на 15май 2003г. <https://constitutions.ru/?p=24969>

4. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Ma'sul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov – T.: Adolat nashriyoti, 2020.

5. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. 3-Maxsus qism/M.Rustambayev. – Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y. –744b

6. Утемуратова, Ш. (2014). ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА БУ ТУРДАГИ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 23(2), 104-107.
URL: <https://karsu.uz/wp-content/uploads/2019/04/%D0%B2%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%BD%D0%B8%D0%BA-2014-2.pdf#page=102>

7. Шабалин Леонид Игоревич (2014). Мошенничество по уголовному праву России, Англии, Германии, Испании, Франции и Японии: сравнительно-правовой анализ. Электронное приложение к Российскому юридическому журналу, (1), 34-40. <https://cyberleninka.ru/article/n/moshennichestvo-po-ugolovnomu-pravu-rossii-anglii-germanii-ispanii-frantsii-i-yaponii-sravnitelno-pravovoy-analiz>

8. <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/jinoyat-sodir-etgan-ayollar-sonining-jinoyatlar-tu?lang=uz&format=pdf>

9. <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/jinoyat-sodir-etgan-erkaklar-sonining-jinoyatlar-t?lang=uz&format=pdf>